



“JANGOVAR MASHG‘ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA O‘TKAZISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI “

Muxitov Musaxan Olimjanovich

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti qurollanish va
otish kafedrası o‘qituvchisi podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14845277>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-fevral 2025 yil
Ma‘qullandi: 5-fevral 2025 yil
Nashr qilindi: 10-fevral 2025 yil

ABSTRACT

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi asosida eng muhim ustuvorliklardan biri –shaxsiy tarkibning professionalligini oshirish vazifasi qo‘yildi. Muddatli harbiy xizmatchilar jangovar o‘quv mobaynida professionalga aylanadilar, bu o‘quvning ta‘sirchanligi esa nafaqat harbiy xizmatchiga, uning o‘z professional mahoratini oshirib borishga bo‘lgan munosabatiga, balki uning komandiri-ofitser va serjantga, ularning uslubiy mahorati, professionalligi va bilimdonligiga bog‘liqdir.

Harbiy pedagogikada jangovar tayyorgarlik va uning mazmun mohiyatiga qo‘yilgan talablar.

Qurolli Kuchlarni shakllantirish jarayonida eng dolzarb masalalardan biri-bu salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Mazkur muammoni hal etish maqsadida harbiy ta‘lim sohasi tubdan isloh qilina boshlandi. Bir qator oliy harbiy ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularda harbiy xizmatga salohiyati yetarli, “shu aziz Vatan meniki, uni ko‘z qorachig‘indek asrab-avaylayman, kerak bo‘lsa, hatto jonimni fido qilishga ham tayyorman, degan ahdi qat‘iy, shijoatli, mard va jasur harbiy kadrlar tayyorlashga kirishildi.

Islohot yillari mobaynida Qurolli Kuchlar hayotida o‘ta dolzarb sanalgan ushbu vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida strategik, tashkiliy va taktik jihatdan bir qator tahsinga loyiq ishlar amalga oshirildi.

Strategik jihatdan. Zamonaviy talablar, yuz berishi mumkin bo‘lgan harbiy haraktlar teatrining o‘ziga xos xususiyatlari, hududimizning jug‘rofiy joylashuvidan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz xavfsizligini ta‘minlash va uning hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish maqsadida eng muhim operatsion yo‘nalishlarda asosiy harbiy-ma‘muriy birliklar sifatida harbiy okruglar tashkil etildi. Harbiy operatsiyalar amalga oshiriladigan eng muhim yo‘nalishlarda mamlakatimizni ehtimol tutilgan dushmanning bosqinchilik haraktlaridan ishonchli muhofaza qilishga qodir bo‘lgan harakatchan, yaxshi ta‘minlangan bo‘linmalar to‘zildi. Qurolli Kuchlarning tashkiliy-shtat to‘zilishi prinsiplari jihatdan o‘zgartirildi, tezkor-strategik boshqaruv, operativ tayyorgarlik va qo‘shinlarni jangovar qo‘llashning haqiqiy markaziga aylangan Birlashgan shtab boshchiligida qo‘shin turlarini samarali boshqarish tizimi yaratildi.

Tashkiliy jihatdan. Qo‘shinlarni boshqarishning prinsipial jihatdan yangi, yagona tizimi joriy etildi. Boshlang‘ich jangovar bo‘linmalarning tashkiliy-shtat to‘zilishi, holati va tavsiflari

hamda ularning vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Biz katta va kam samarali bo'linmalar hamda jangovar boshqaruv organlaridan voz kechdik. Bu esa qism va bo'linmalarining harakatchanligi va jangovar qobiliyatini oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimiz xavfsizligiga xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm tomonidan real xatarlar mavjudligini nazarda tutgan holda va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, konstitutsiyaviy to'zumni bo'zishga yo'naltirilgan qo'poruvchilik-terrorchilik aktlarini o'z vaqtida bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida maxsus operatsiyalarni amalga oshiradigan, terrorchilikka qarshi kurashadigan bo'linmalar tashkil etildi.

Taktik jihatdan. Qurolli kuchlar, barcha tur va xildagi qo'shinlar tayyorgarligi asosida harakatchanlik, tezkorlik va jangovar operatsiyalarni o'tkazishda yuqori samaradorlikka erishish vazifalari qo'yildi. Qo'shinlarning barcha turlari va xillari hamda kuch to'zilmalarining o'zaro hamkorlikdagi tayyorgarligi va jangovar qo'llanilishini ta'minlash vazifalari hal etildi. Zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda o'quv dasturlari, ta'lim jarayonining yo'nalishlari qayta ko'rib chiqildi. Xavfsizligimizga nisbatan mavjud bo'lgan tahdid va xatarlarni tahlil qilish, ularning rivojlanish yo'nalishlari va ehtimoliy oqibatlarini aniqlash bo'yicha tizimli ishlar joriy etildi. Qurolli kuchlarimiz tezkor, loqal jangovar operatsiyalarni o'tkazish, iqtisodiyotga, mamlakatning hayotiy muhim ob'ektlariga, fuqarolarning hayoti va salomatligiga zarar yetkazishga yo'naltirilgan qurolli kurashning turli shakl va usullaridan foydalanishi mumkin bo'lgan noqonuniy uyushmalar va qo'poruvchi-terrorchi guruhlariga qarshi samarali kurash olib borishga doimo shay bo'lishiga eng muhim vazifalar sifatida qaraldi.

O'tgan davr ichida armiyada mavjud qurol-aslahani takomillashtirish, uni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, professional armiyani vujudga keltirish yo'lida samarali ishlar amalga oshirildi. Bundan asosiy maqsad armiyaning jangovar tayyorgarligi uchun sharoit yaratishdir.

Bugungi kunda dunyodagi, shu jumladan, mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, turli joylarda terrorchi va ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishi mamlakat mudofaa qudratini yanada mustahkamlash, armiyada doimiy oshirish, shaxsiy tarkibning harbiy saboq va san'ati, texnikani puxta o'rganishini, ma'naviy-ruhiy jihatdan har tomonlama tayyorlangan bo'lishini talab etmoqda.

Tarixdan ma'lumki, sohibqiron Amir Temur o'z sipohlarining doimiy jangovar shayligiga alohida ahamiyat bergan. U tanlab olgan sarkardalar o'zlarining harbiy mahoratlarini nafaqat urush kezlarida, balki tinch mehnat chog'ida ham namoyish etishini talab qilgan. Qo'mondonlar tarkibining harbiy ishdan talab darajasida mahorat va malakaga ega bo'lgan shaxslardan shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan. Doimiy harbiy tayyorgarlik va harbiy san'atni rivojlantirishi tufayli jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Qo'shin qanoatlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, dushman kuchlarining yon tomonidan aylanib o'tib, unga ortidan zarba berish maqsadida maxsus otliq qismlar joriy etdi. Tog'li hududlarda jang harakatlarini olib boruvchi piyodalardan to'zilgan maxsus harbiy qismlar tashkil etdi. Bularning hammasi o'z o'rnida g'alaba manbai bo'lib xizmat qildi.

Jangovar tayyorgarlikning mazmuni va umumiy yo'nalishi davlatning harbiy (mudofaa) doktrinasi, ehtimol tutilgan urushning ehtimoliy xususiyati, jangovar nizomlar, qo'llanmalar, o'quv kurslari, tegishli buyruqlar, rejalar va dasturlarda qo'yilgan talablar bilan belgilanadi.

Jangovar tayyorgarlikda ko'zlangan asosiy maqsad- qo'shinlarning jangovar qobiliyati va jangovar shayligini oshirish, harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarini muvaffaqiyatli olib borishlari uchun zarur bo'ladigan ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Jangovar tayyorgarlik o'z ichiga oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibining yakka tartibdagi tayyorgarligi, bo'linma va harbiy qismlarning hamjihat tayyorgarligi, ofitserlar va

komandirlik lavozimidagi, shtab, xizmat turi va boshqaruv organida faoliyat yuritayotgan ofitserlar tayyorgarligini mujassam etadi.

Jangovar tayyorgarlik armiya hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Ular bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Jangovarlikni ta'minlashga jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikning barcha yo'nalishlari, xizmatni tashkil etish, ichki gornizon va qorovul xizmati, jangovar navbatchilik yo'naltirilgan.

Chunonchi, jangovar tayyorgarlikning asosiy elementlaridan biri sergaklikdir. Sergaklik doimo dushman tajovuzini qaytarishda bosh rolni o'ynagan. Mana shundan kelib chiqqan holda har bir yosh askar Qurolli Kuchlar safiga kirayotganida avvalo "doimo sergak jangchi bo'lishga" tantanali ravishda qasamyod qiladi. *Sergak bo'lish*-bu komandirlar tomonidan berilayotgan harbiy bilimlarni puxta egallash, harbiy texnika va qurol-aslaxani mukammal egallashga kuch va g'ayratni ayamalik, har qanday sharoitda harbiy mahoratini oshirishga intilish, o'z ustida ishlash, davlat va harbiy sirlarni saqlay bilish, qism va bo'linmalarda amalga oshirilayotgan harbiy tayyorgarlik va umuman harbiy hayot bilan bo'lgan ma'lumotlarni bo'linma qismdan tashqarida olib chiqmaslik, harbiy texnika va qurol aslaxani ko'z qorachig'idek asrash, davlat mulkini talon-taroj qilishga yo'l qo'ymaslikdir.

Har bir harbiy xizmatchi xizmat vazifasini bajarishga kirishar ekan, sergaklik Vatani va xalqining tinchligi, osoyishtaligi, garovi ekanligini unutmasligi lozim. Komandir va boshliqlar bu yo'nalishda shaxsiy tarkib bilan muntazam ravishda ish olib bormoqdalar, harbiy Qasamyod, Nizomlar va xalqimiz talablarini o'z qo'li ostidagilarga doimiy ravishda tushuntirib kelmoqdalar.

Jangovar tayyorgarlikning mazmuni va umumiy yo'nalishi davlatning harbiy (mudofaa) doktrinasi, ehtimol tutilgan urushning ehtimoliy xususiyati.

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi asosida eng muhim ustuvorliklardan biri – shaxsiy tarkibning professionalligini oshirish vazifasi qo'yildi. Muddatli harbiy xizmatchilar jangovar o'quv mobaynida professionalga aylanadilar, bu o'quvning ta'sirchanligi esa nafaqat harbiy xizmatchiga, uning o'z professional mahoratini oshirib borishga bo'lgan munosabatiga, balki uning komandiri-ofitser va serjantga, ularning uslubiy mahorati, professionalligi va bilimdonligiga bog'liqdir.

Professionallikning ahamiyati juda katta. Shu sababli ham respublikamiz rahbariyati, Mudofaa vazirligi professional harbiy xizmatchilarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratmoqda va ana shu maqsadda qo'shinlarni barcha zaruriy vositalar-zamonaviy o'quv-moddiy baza, eng yangi trenajyorlar, texnik vositalar, kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanmoqda, o'quv-tarbiya jarayoniga harbiy fan va harbiy ish amaliyotining zamonaviy yutuqlari, modellashtirish va simulyatsiya uslublarini tatbiq etmoqda. Bugun oliy harbiy ta'lim muassasalari, poligonlar, harbiy qism va bo'linmalarning o'quv moddiy bazasiga bir nazar tashlasak-barcha joylarda biz fan va texnikaning ilg'or yutuqlari asosida jihazlangan sinflar, kompyuter trenajyorlari hamda mustahkam kasbiy bilimlar, yuksak jangovar mahoratini egallash uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni ko'ramiz.

Jangovar tayyorgarlik (boevaya podgotovka) Qurolli kuchlar shaxsiy tarkibini belgilangan vazifasiga muvofiq, jangovar harakat yoki o'zga vazifalarni bajara olishi uchun o'qitish va harbiycha tarbiyalash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Jangovar tayyorgarlik tinchlik davrida ham, urush davrida ham o'tkaziladi. Jangovar tayyorgarlik shaxsiy tarkibga dala, dengiz, havo (parvoz qilish) ta'limotini berish va mashqlarni o'tkazishga yo'naltirilgan bo'lib, yuksak malaka jangovar vaziyatlarga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda egallanadi.

Jangovar tayyorgarlikning asosiy tamoyillaridan biri-urush jarayonida talab etiladigan zaruriy mahoratlarni shakllantirishdir.

Jangovar harakatlar, qurolli kuchlar turi va qo'shin turi orasidagi hamkorlik hamda jangovar ta'minot masalalari-umumqo'shin mashqlar (manyovrlar) jarayonida ko'rib, o'rganilib chiqildi.

Jangovar tayyorgarlik – bu qo'shinlarning shunday xolatiki, har qanday vaqt va eng og'ir sharoitlarda ham jangovar vazifani bajara olishi, bosqinchilarning tajavo'ziga shavqatsiz zarba bera olishidan iborat.

Jangovar tayyorgarlikning asosiy sharti shaxsiy tarkibning ma'naviy va ruhiy tayyorgarligi, texnika va qurollarning dushmanning kutilmagan xujumini qaytara olishi va unga yo'q qiluvchi zarba bera olishga tayyorligi qisqa vaqt ichida dushman bilan janga kirisha olishi va vaziyatga qaramasdan, yilning ixtiyoriy vaqtida kunduzi va tunda ham, dushman tomonidan ommaviy qirg'in quroli qo'llangan xolda ham, oddiy vositalar qo'llangan xolda ham qo'yilgan vazifani bajara olish xisoblanadi.

Qism va bo'linmalar uchun jangovar tayyorgarlikning bir necha bosqichlari mavjud xar bir keyingi bosqich qism va bo'linmaning vazifani zudlik bilan bajarish tayyorgarligiga ketadigan vaqtni qisqartiradi.

“Jangovar tayyorgarlik” tushunchasi shaxsiy tarkibning istisnosiz barcha faoliyat soxalarini qamrab oladi. U bir tomondan turgan vazifalarning shaxsiy tarkib tomonidan bajarilishini ta'minlaydi, boshqa tomondan shaxsiy tarkib faoliyatining natijasi xisoblanadi.

Uning birinchi tomoni jangovar tayyorgarlikning muxim sharti bo'lib xisoblangan quyidagi ob'ektiv ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

- qism (bo'linma)larning shaxsiy tarkib, qurol-yaroq, moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganligi;
- jangovar texnika va qurolning xolati;
- shaxsiy tarkibning bilim darajasi;
- qo'shinlar xizmatining tashkillashtirilishi;
- shaxsiy tarkibning ma'naviy ruhiy xolati, harbiy intizom xolati.

Uning sub'ektiv xolati har bir harbiy hizmatchining jangovar tayyorgarlikni oshirish masalalari bilan bog'liq majburiyatlarini bajarishga munosabati xisoblanadi.

Qism va bo'linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirish har bir ofitser, ixtiyoriy darajadagi boshliqning eng muxim vazifasidir. Harbiy hizmatchilarning tinchlik davrida jangovar tayyorgarlik asosiy kundalik hayotidir. Dala o'quv mashg'ulotlari jangovar tayyorgarlikning asosiy mashg'ulotlaridan biri xisoblanadi; shaxsiy tarkibni «yigin» marsh signali ostida kutarish, belgilangan rayonga yetib borgunga kadar bo'lgan masofani «jang» xolatida bosib utish. Xar bir bosqichda serjantlarga va faollarga tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkil qilishda anik vazifani qo'yish kerak. Xar bir bosqich tugagandan so'ng kilingan ishlar to'g'risida xisobotlarni eshitish lozim.

Bunda asosiy e'tibor tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni yaxshilashga, xarbiy hizmatchilarning qasamiyotga sodikligiga nizom talablari va komandir, boshliklar buyruklarini so'zsiz bajarishlariga, qurollar bilan ishlash hamda texnika xovfsizligi va qoidalariga rioya qilishga qaratilishi kerak. Xarbiy intizomni mustaxkamlashning asosiy shartlaridan biri komandirlarning o'z kul ostidagi shaxsiy tarkibni yaxshi bilishi va ular bilan yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni o'tkazishidir. ular orasida o'zaro jipslikni vujudga keltirish, xarbiy jamoani birlashtirish va soglom muxitni yaratish kerak.

Jangchilarni ongli ravishda intizomli bo'lish ruhida tarbiyalash, komandirlarning shaxsiy o'rnak bo'lishlarini yo'lga qo'yish, intizom va talabchanlikni uyg'unligiga ishontirish, qo'l ostidagilarning insoniylik tug'ularini xurmat qilish va ular haqida g'amxo'rlik qilish lozim. Xarbiy intizomni mustaxkamlashda ijtimoiy-siyosiy, xarbiy texnikaviy, ruhiy kunikmalarni e'tiborga olish, intizom axvolini taxlil qilib borishni takomillashtirish va uni xaqqoniy baholab borish kerak.

Shaxsiy tarkib yuksak ma'naviy – jangovar va ruhiy sifatlarini rivojlantirishda tinchlik davridagi jangovar o'qishning aloxida roli bor. Xozirgi zamon janggida yaxshi ukitilgan, dushmanga karshi turishi mumkin bo'lgan, olis masofadan, xar kanday obi-xavo va xar kanday joyda, kun va tunda nishonni bir uk urishdayok yakson kila oladigan, katta ma'naviy va ruhiy og'irlikni va jismoniy keskinlikni yenga oladiganlarga g'alabaga erishadi. Ishonib

topshirilgan qurol va xarbiy texnikani mukammal egallagan, undan jangda moxirona qo'llay oladigan, jangovar kasb ustasi, o'ziga ishongan jangchi so'zsiz g'alabaga erishadi.

Tinchlik davrida shaxsiy tarkibni jangovar xarakatlarga ma'naviy va ruhiy tayyorlash jarayoni ularda xarbiy nitizom, shaxsiy tarkibning ijrochilik ruhida tarbiyalashni ham taqozo etadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, janglarda g'alabaning muhim manbai sifatida aynan mustahkam intizom, mardlik va matonatning misli ko'rilmagan namunalari zarurdir. Tinchlik davrida intizomli jangchini tarbiyalash birinchi navbatda kism va bo'linmalarda qat'iy nizom tartibini saqlash, kun tartibini o'z vaqtida bajarishga aloqador bo'lib, bu jangchilarda intizomlik, xozir javoblik, ijrochilik kabi ma'naviy-jangovar sifatlarini shakllantiradi.

Jangovar tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning tinchlik davridagi kundalik faoliyatining asosiy mazmunidir. Jangovar tayyorgarlik jarayonida shaxsiy tarkibda yuksak jangovar va axloqiy – ruhiy sifatlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Shu imkoniyatlardan foydalanish maqsadida har bir bo'linma komandiri o'quv jarayonini ma'naviy-ruhiy jixatdan ta'minlay olishi shart. Bu vazifan bajarish uchun komandir dastavval o'z bo'linmasining jangvar tayyorgarlikdagi vazifasini, ya'ni uning bo'linmasi jangovar xolat, yoki xarbiy qism, qo'riqlanayotgan ob'ktiga noqonuniy xarakterlar yuz berganida nima vazifani bajarishlarini bilishi kerak. Shu bilan bir qatorda komandir jangovar tayyorgarlikning maqsadini, uning tashkillashtirilishi tartibini o'zlashtirgan bo'lishi kerak

Jangovar tayyorgarlikning maqsadi – har bir harbiy xizmatchini xozirgi zamon jangining murakkab vaziyatlarda bo'linmalarda o'zining jangovar vazifasini muvaffaqiyat bilan bajarishga o'rgatish va unda yuksak axloqiy-jangovarlik sifatlarini shakllantirishdir.

Mana shu jarayonlarning amalda bajarilishi natijasida jangovar tayyorgarlikni ma'naviy-ruhiy ta'minlashning asosiy vazifalari hal etiladi.

Bo'linma komandiri jangovar tayyorgarlik vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni olib borar ekan, buning ikkita muxim jixatini (yo'nalishini) hisobga olishi zarur.

Birinchi jixat (yo'nalish) - jangchining o'z vazifasini bajarishining eng maqbul usullarini belgilovchi texnologik g'oyalar kashf etish. Bu jangchidan jangovar tayyorgarlikning barcha soxalarini mukammal bilishni, komandirdan esa bundan tashqari jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uslubiyatini bilishni talab qiladi.

Ikkinchi jixat (yo'nalish)- jangchilarda jangovar tayyorgarlikni zarur ekanligini, uning yuksak ahamiyati, jangovar ko'nikmalarni o'rganish soxasidagi ijobiy munosabatlarni, dunyoqarashni shakllantirish.

Bo'linma komandiri jangovar tayyorgarlik yoki xizmatni o'tash yo'riqnomalari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirar ekan, tarbiyaviy ishning ommaviy shakllaridan faqatgina biron-bir zaruriy vazifani hal etishda foydalanishi, asosiy e'tiborni esa har bir jangchining shaxsiy tayyorgarligi haqida axborot to'plash. Har bir jangchiga ularning professionalligini yuksaltirish bo'yicha shaxsiy ta'sir ko'rsatishga qaratishi, ya'ni yakka tartibdagi tarbiyaviy ish yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'qish turli jabhalarni o'z ichiga oladi va bo'linma komandiridan har bir soxaga (jismoniy tayyorgarlik, jangovar mashinalarni boshqarish, jangovar o'q otish mashqlari, taktik dala mashg'ulotlariga) o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir qo'llashni talab qiladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahimova D.A., Harbiy pedagogika. – T.: Akadnmiya, 2022. – 370 b
2. Sotib-Oldiev A., Karimjonov A., Harbiy pedagogika. – T.: Sharq, 2005. – 209 b
3. Avazova A.I., Ismadiyorova Y.U. Kasbiy pedagogika. – T.: Cho'lpon NMIU, 2014. – 320 b
4. B.Ziyomhammadov. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: "Tib-Kitob", 2009. – 182 b.
5. T. Atamatova, X. Ergasheva, M. Qurbonov. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: "Yangi asr avlodi" 2008. – 180 b.
6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod. 2008. -180 b.

7. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A.,Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod. 2010. -180 b. (8 ta)
8. O'rinov O'.R./O'quv qo'llanma/. Toshkent: O'R QK 2008. – 38 b.
9. Ro'zimov U.B. Pedagogik mahorat. Pedagogik texnologiyalarning oliy harbiy ta'limda qo'llanilishi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent OUQBYu. 2015. – 120 b.
10. Nasriddinov Ch. Harbiy pedagogika. – T.: Sharq, 2004. – 152 b.
11. Karimova V.M. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy amaliyot.O'quv qo'llanma. T., 1999 g. 95 bet.

